

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHNING
BUGUNGI KUNDAGI DOLZARBLIGI**

Ayubov Ilyos Ilxomovich

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

I.f.f.d., PhD, dotsent

Ollomberganova Nozimaxon Sherzod qizi

Iqtisodiyot yo'nalishi 1-kurs talabasi

MAQOLA MALUMOTI	ANNOTATSIYA:
MAQOLA TARIXI:	<i>Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning hozirgi iqtisodiy sharoitdagi o'rni hamda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishidagi strategik ahamiyati tahlil etiladi. Tadqiqotda ushbu sektorning YaIM o'sishiga qo'shayotgan hissasi, xususan kichik biznesning iqtisodiyotda 50 foizdan ortiq ulushga ega ekani va bandlikning asosiy qismini shakllantirayotgani raqamlar bilan asoslanadi. Kichik biznesning YaIM tarkibidagi ulushi va uning yillik o'sish dinamikasi statistik yondashuvlar orqali baholanadi. Innovatsion rivojlanish, yangi texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda kichik biznesning roli alohida ko'rsatiladi</i>
<i>Received: 11.12.2025</i>	
<i>Revised: 12.12.2025</i>	
<i>Accepted: 13.12.2025</i>	
KALIT SO'ZLAR:	
<i>kichik biznes, xususiy tadbirkorlik, YaIM, iqtisodiy o'sish, bandlik, raqamli iqtisodiyot, startup ekotizimi, innovatsion rivojlanish, davlat qo'llab-quvvatlashi, iqtisodiy barqarorlik, investitsiyalar, bozor mexanizmlari</i>	

Kirish

Bugungi globallashuv va iqtisodiy integratsiya jarayonlarining chuqurlashuvi sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish masalasi nafaqat milliy, balki xalqaro miqyosda ham iqtisodiy barqarorlikni ta'minlovchi strategik yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning markazida tadbirkorlikni rivojlantirish, kichik biznes subyektlari salohiyatini oshirish, bozor mexanizmlarini liberallashtirish va raqobatbardosh iqtisodiy muhitni shakllantirishga qaratilgan tizimli chora-tadbirlar ustuvor o'rin egallamoqda. Bu jarayonda davlat tomonidan yaratilayotgan qulay huquqiy va institutsional sharoitlar, soliq yengilliklari, ruxsat berish tartib-taomillarining soddalashtirilishi hamda kredit resurslariga kirish imkoniyatlarining

kengaytirilishi kichik biznesning iqtisodiy o'sish drayveri sifatidagi rolini yanada kuchaytirmoqda.

Ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qator qarorlarida, jumladan, kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga doir me'yoriy-huquqiy bazaning takomillashtirilishi, tadbirkorlik subyektlarining huquqiy himoyasini kuchaytirish, ularning faoliyatiga asossiz aralashuvlarning oldini olish, shuningdek, bozor infratuzilmasining modernizatsiya qilinishi ustuvor vazifa sifatida belgilangan. Kichik biznesning o'ziga xos jihatlaridan biri — kam kapitalli, ammo yuqori moslashuvchanlikka ega bo'lgan xo'jalik subyekti sifatida iqtisodiy o'zgarishlarga tez moslasha olishi, yangi ish o'rinlari yaratishda faol ishtirok etishi va hududlar kesimida iqtisodiy faollikni jonlantirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi. Shu bois, mazkur sektorning zamonaviy iqtisodiy sharoitda tutgan o'rni strategik ahamiyat kasb etadi.

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, startup ekotizimining shakllanishi, xizmat ko'rsatish va innovatsion biznes modellarining kengayishi, yoshlar va ayollar tadbirkorligining rivoji kabi omillar kichik biznesning yangi bosqichda transformatsiya qilinishini taqozo etmoqda. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida bozor munosabatlarining yanada takomillashishiga, raqobatbardoshlikning kuchayishiga, iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish jarayonining jadallashishiga olib kelmoqda. Ushbu maqolada kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi o'rni, uning zamonaviy rivojlanish dinamikasi, mavjud muammolar, imkoniyatlar va istiqbollar tizimli ravishda tahlil qilinadi.

Adabiyotlar sharhi

B. Sh. Musayevning "Kichik biznesni boshqarish" nomli o'quv qo'llanmasida kichik biznesning iqtisodiy tizimdagi funksiyalari, uning bozor infratuzilmasi bilan integratsiyasi hamda boshqaruv mexanizmlarining samaradorligini oshirish yo'nalishlari keng yoritilgan. Muallif kichik biznesni rivojlantirishda tashkiliy-huquqiy asoslar, moliyaviy ta'minot, xo'jalik yurituvchi subyektlarning innovatsion faolligi va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha nazariy va amaliy yondashuvlarni tahlil qiladi. Asarda kichik biznesning YAIMdagi ulushi, bandlikni ta'minlashdagi roli, iqtisodiy o'sish sur'atlariga ta'siri haqidagi konseptual qarashlar mavzuning ilmiy poydevorini mustahkamlaydi.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish tarmoq markazining "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari" moduliga oid materiallar esa kichik biznesni tashkil etish, tadbirkorlikni boshlash bosqichlari, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmlari va amaldagi tartib-taomillar bo'yicha amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi. Mazkur modul kichik biznes subyektlari duch keladigan iqtisodiy, moliyaviy va tashkiliy to'siqlarni yengib o'tish bo'yicha tizimli yondashuvlarni taklif etib, sohaning bugungi dolzarb jihatlarini ochib beradi. Ushbu ikki manba mavzuning nazariy asoslari va amaliy mexanizmlarini uyg'un holda yoritib, kichik

=====

biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning hozirgi kundagi dolzarbligini ilmiy jihatdan asoslash imkonini beradi.


Tadqiqotlar metodologiyasi

Ushbu maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishning dolzarligi o'rganildi. Tadqiqot nazariy va empirik usulda olib borildi: nazariy tahlil orqali mavzuga oid ilmiy adabiyotlar, maqolalar va davlat statistikasi o'rganildi, empirik qism esa so'rovnoma va intervyular yordamida ma'lumot yig'ishga asoslandi. Tadqiqot ob'ekti – kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati, sub'ekti esa mamlakatimizdagi tadbirkorlar va kichik biznes egalari hisoblanadi. Ma'lumotlar yig'ishda asosiy manba sifatida so'rovnoma va intervyular qo'llanildi, ikkinchi darajali ma'lumotlar esa davlat statistikasi va ilmiy adabiyotlardan olindi. So'rovnoma natijalari foizlar va grafiklar orqali tahlil qilindi, intervyu ma'lumotlari sifat tahlili yordamida umumlashtirildi. Tadqiqotning bosqichlari quyidagicha bo'ldi: avvalo adabiyotlar va statistik ma'lumotlar o'rganildi, keyin so'rovnoma va intervyu shakllari ishlab chiqildi, ma'lumotlar yig'ilib tahlil qilindi va oxirida xulosa hamda tavsiyalar ishlab chiqildi. Tanlangan metodlar tadqiqot maqsadiga to'liq mos keladi, chunki ular kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mavjud holatini aniqlash, muammolarini o'rganish va rivojlantirish yo'nalishlarini baholash imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Kichik tadbirkorlik (KT) O'zbekiston iqtisodiyotining asosiy bo'g'ini hisoblanadi, bandlikni ta'minlash va iqtisodiy o'sishni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. 2024-yil yakunlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarga asosan, kichik tadbirkorlikning holati va rivojlanish dinamikasi batafsil tahlil qilindi. 2025-yil 1-yanvar holatiga O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar soni 358,1 mingga tashkil etdi, bu esa har 1000 aholiga 12,1 birlikdan to'g'ri keladi. 2024-yil davomida 77,0 mingga yangi kichik korxona va mikrofirmalar (dehqon va fermer xo'jaliklarisiz) tashkil etildi.

Kichik korxonalar sonining dinamikasi



2020–2023-yillar kesimida kichik korxonalar sonida sezilarli o'zgarishlar kuzatilgan. 2021-yilda korxonalar soni keskin oshgan bo'lsa, 2022-yildan boshlab pasayish tendensiyasi kuzatiladi. Ayniqsa, 2023-yilda ko'rsatkichning 358,1 mingtagacha kamayishi korxonalar faoliyatining keskin to'xtashi yoki iqtisodiy inqiroz bilan bog'liq emas. Mazkur kamayish asosan davlat reyestrlaridagi ma'lumotlarni yangilash, faoliyati real ravishda to'xtagan korxonalarni ro'yxatdan chiqarish, shuningdek, korxonalarni qayta tashkil etish bilan bog'liq texnik jarayonlar natijasida yuzaga kelgan. Shu bois 2023–2024-yillardagi pasayish statistik tozalash jarayonlarining oqibati bo'lib, iqtisodiyotda kichik biznesning real qisqarishini aks ettirmaydi.

Iqtisodiy ko'rsatkichlar

Kichik tadbirkorlikning asosiy tarmoqlarga qo'shgan hissasi:

No	Ko'rsatkich	Hajmi (mlrd so'm)	Umumiy hajmdagi ulishi(%)
1	Yalpi ichki mahsuloti (YaIM)	—	54,3%
2	Sanoat ishlab chiqarishi	286675,2	32,4%
3	Qurilish ishlari	178718,9	76,5%
4	Asosiy kapitalga investitsiyalar	255883,8	51,8%
5	Qishloq xo'jaligi mahsulotlari	—	95,2%

6	Chakana savdo tovar aylanmasi	338802,6	84,0%
7	Pulli xizmatlar ko'rsatish	466461,8	57,0%

Jadval ma'lumotlari kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi o'rni nihoyatda muhim ekanini yaqqol ko'rsatadi. Xususan, kichik biznesning YAIMdagi ulushi 54,3 foizni tashkil etishi ushbu sektor iqtisodiy o'sishning asosiy drayverlaridan biri ekanini tasdiqlaydi. Qurilish ishlarida (76,5%) va qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda (95,2%) kichik tadbirkorlikning ulushi ayniqsa yuqori bo'lib, bu real sektorni rivojlantirishda kichik biznes yetakchi kuchga aylanganini bildiradi. Shuningdek, chakana savdo tovar aylanmasining 84 foizi va pulli xizmatlar bozorining 57 foizini ushbu sektor hisobiga to'g'ri kelishi kichik biznesning ichki bozor barqarorligi va aholining kundalik talablarini qondirishdagi faol rolini ko'rsatadi. Sanoat ishlab chiqarishi (32,4%) va asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning yarmidan ortig'i (51,8%) ulushi esa sanoatni diversifikatsiya qilish va investitsion faollikni oshirishda kichik tadbirkorlik imkoniyatlari kengayib borayotganini anglatadi. Umuman olganda, jadvaldagi ko'rsatkichlar kichik tadbirkorlikning iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida barqaror o'sish, bandlik va bozor faolligini ta'minlovchi muhim omil ekanini tasdiqlaydi.

Eng kichik korxonalar quyidagi iqtisodiy sohalaarda faoliyat yuritmoqda:

Iqtisodiy soha	Korxonalar soni	Ulushi (%)
Savdo	136352 ta	38%
Sanoat	54692 ta	15%
Qishloq, O'rmon va baliqchilik xo'jaligi	30369 ta	9%
Qurilish	26933 ta	8%
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	25947 ta	7%

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, kichik korxonalar asosan savdo sohasida (38%) faoliyat yuritadi. Sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilish va ovqatlanish xizmatlari ulushi nisbatan kamroq bo'lsa-da, iqtisodiyotning muhim tarmoqlarini tashkil etadi. Umuman, kichik biznesning katta qismi xizmat ko'rsatish va savdo yo'nalishlariga to'plangan.

2024-yilda kichik tadbirkorlik O'zbekiston iqtisodiyotida muhim rol o'ynashda davom etdi, garchi korxonalar sonining o'sish sur'ati sekinlashgan bo'lsa ham. Sektorning yanada rivojlanishi uchun davlat tomonidan ko'proq moliyaviy ko'mak, avtomatlashtirish darajasini oshirish va tartibga solish jarayonlarini yengillashtirish zarur. Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, savdo, sanoat va xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikni rivojlantirish uchun

=====

katta imkoniyatlar mavjud. Kichik korxonalar sonining ko'payishi va ularning samaradorligi iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash va uzluksiz o'sishni ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa va takliflar

O'tkazilgan tadqiqotlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning O'zbekiston iqtisodiyoti barqaror rivojlanishidagi hal qiluvchi o'ringa ega ekanini yaqqol ko'rsatdi. Statistik ma'lumotlarga ko'ra, ushbu sektorning YAIMdagi ulushi 54,3 foizni tashkil etadi, chakana savdo (84%), pulli xizmatlar (57%), qurilish (76,5%) hamda qishloq xo'jaligi mahsulotlari (95,2%) tarmoqlarida yetakchi mavqega ega. Bu ko'rsatkichlar kichik biznesning real sektorni rivojlantirish, ichki bozor barqarorligini ta'minlash, yangi ish o'rinlari yaratish va hududlar kesimida iqtisodiy faollikni jonlantirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi. 2024-yilda faol kichik korxona va mikrofirmalar soni 358,1 mingtaga yetdi, ulardan 77 mingdan ortig'i yangi tashkil etilgan korxonalar bo'lib, sektorning dinamik rivojlanishini ko'rsatadi. Savdo tarmog'i 38%, sanoat 15%, xizmat ko'rsatish, qishloq xo'jaligi va qurilish tarmoqlari esa sezilarli ulush bilan iqtisodiyotning diversifikatsiyalashgan tuzilmasini shakllantirishga xizmat qilmoqda. Raqamli iqtisodiyot sharoitida kichik biznesda raqamli vositalardan foydalanish ulushi 2020-yilda 32%dan 2022-yilda 58%gacha oshib, avtomatlashtirish va elektron savdo tizimlarining jadal rivojlanayotganini ko'rsatadi. Shuningdek, yoshlar va ayollar tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, soliq yengilliklari, kredit va grantlar mexanizmlari sektorning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini yanada kuchaytirmoqda. Biroq tadqiqot natijalari moliyaviy resurslarga kirish murakkabligi, byurokratik tartib-taomillar, kadrlar salohiyatining pastligi va raqamli savodxonlikning cheklanganligi kabi cheklovlarni ham aniqladi.

Kichik biznesni yanada rivojlantirish va iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash uchun bir qator tavsiyalar ishlab chiqildi. Avvalo, moliyaviy qo'llab-quvvatlashni kengaytirish, past foizli kreditlar, garov talablarini soddalashtirish va startaplar uchun alohida grant dasturlarini joriy etish zarur. Raqamli transformatsiyani jadallashtirish uchun tadbirkorlar o'rtasida raqamli savodxonlik bo'yicha treninglar tashkil etilishi va elektron savdo platformalariga ulanish jarayoni soddalashtirilishi lozim. Litsenziya va ruxsatnomalar olish tizimini optimallashtirish, hududiy tadbirkorlikni infratuzilmaviy qo'llab-quvvatlash, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va mahalliyashtirish dasturlariga kichik korxonalarni jalb etish muhimdir. Shuningdek, kadrlar tayyorlashni takomillashtirish, yoshlar va ayollar tadbirkorligi uchun mentorlik tizimini yaratish, raqobat muhitini kuchaytirish va kichik biznesni eksportga yo'naltirish bo'yicha chora-tadbirlar amalga oshirilishi tavsiya etiladi. Yakuniy xulosa shundan iboratki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarida barqaror o'sish, bandlikni ta'minlash va bozor faolligini kuchaytirish bo'yicha muhim drayver bo'lib qolmoqda, va uni rivojlantirishga qaratilgan tizimli siyosat mamlakat iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 17-yanvardagi 28-son qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi “Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash to‘g‘risida”gi Qonun.
3. Samarqand iqtisodiyot va servis instituti B.Sh. Musayev “Kichik biznesni boshqarish” o‘quv qo‘llanma Samarqand – 2021
4. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi. D.S.Kosimova., TDIU, iqtisod fanlari doktori, professor “Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari” moduli bo‘yicha o‘quv-uslubiy majmua.
5. <https://invexi.org/uz/press/key-indicators-of-small-entrepreneurship-in-the-republic-of-uzbekistan-for-2024/>
6. <file:///C:/Users/Talaba15/Downloads/b393d0eb33996dce6e1136055dd21669.pdf>
7. file:///C:/Users/Talaba15/Downloads/kitob_00637379e77392a.pdf